

**GULJAMOL ASQAROVA SHE'RIYATIDA LIRIK KECHINMALAR TALQINI****Muslihiddinova Sevinch Erkin qizi**

Guliston davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

[muslihiddinovasevinch@gmail.com](mailto:muslihiddinovasevinch@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek she'riyatiga yangi bir ohang olib kirgan Guljamol Asqarovaning she'riyati o'rganilib, ijodkorning lirik kechinmalari aks etgan she'rlaridan namunalar keltiriladi. Hamda she'rlardagi olg'a surilgan g'oyalar satrlar jilovidan bir muncha erkin holda tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** lirik kechinma, tuyg'u, she'riyat, adabiyot, san'at, obraz, badiiy shakl, kurrai zamin, san'at tili, vosita.

Adabiyot inson ko'ngliga taskin beruvchi, fikr va his-tuyg'ularini badiiy ifodalash orqali o'zaro ulashadigan san'at turidir. U doim yangilikni xush ko'radi. Safdoshlarini, qalbi poklarni o'z domiga tortadi. Ijodkordan katta jasorat talab qiladi. Bugun o'zbek she'riyati o'z tarixining yangi davriga qadam qo'ydi. Istiqloq davri she'riyatiga xos muhim xususiyatlardan biri shundaki, milliy ranglarga ega bo'lishi va milliy qadriyatlarni sharaflash bilan birga, milliy haqiqatni kashf etishi, inson qalbini yaqindan his etish, uning teran qatlamlariga nazar tashlash, undagi ezgu jihatlarni nurlantirishi orqali kitobxon saviyasini yuqori darajaga ko'tarishdir.

Mana shunday jasoratlarni 70- yillarda boshlay olgan ijodkorlar haqida O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov: "She'riyatimizga yangi avlod kirib keldi. Ohista, iymanib, ulug'lar qoshida cho'chinqirab emas, shaxdam, dadil, bamisoli to'yxonaga kelgan o'spirin kuyovnavkarlardek olatasir va so'ron bilan kirib keldi... Ular shoir sifatida dolg'ali, behalovat davr bolalari, qalbu xayollari anordek qontalash, kurrai zaminning istirobu umidlariga og'ushta bo'lgan, dunyoga ham zavqu shavq, ham xavotir ko'zi bilan boqqan yoshlar. Ular, yana shoir sifatida, she'riyatda haqqoniyat va samimiyat, insonparvarlik g'olib bo'lib turgan, haqiqiy iste'dod qadrlanib nasihat o'rnini badiiyat, jarangos o'rnini ishontirish qudrati egallab turgan bir davrning ijodkorlari", -deydi.[1] Hozirgi kunda ham adabiyot olamiga savlat ila kirib kelayotgan ijodkorlar mavjuddir. Ular inson qalbi bilan yaqinlikni talab etadigan davr ijodkorlaridir. Ana shunday davrda Guljamol Asqarova ham adabiyotni o'ziga oshno tutdi. Jasorat ila uning sahifalarida o'z qalamidan izlar qoldirishni boshladi. Uning "Dil fasli", "Ro'shnolik", "Bedor qo'ng'iroq", "Baxt dastxati" nomli she'riy kitoblari nashr etilgan. Ijodkor she'rlarida lirik kechinmalarni tutqin etmay, satrlar ummonida erkin suzgan.

Lirik kechinma-bu she'riyatda shoirning ichki tuyg'ulari, hislarini va kechinmalarini ifodalash usulidir. Bu tushuncha ko'pincha sevgi, ayriliq, sog'inch, baxt yoki izzat kabi kuchli hissiyotlar bilan bog'liq bo'lib, individual ruhiy holatlarni san'at tilida yetkazishni o'z ichiga oladi. Lirik kechinma orqali ijodkor shaxsiy his-tuyg'ularini obrazli va badiiy shaklda o'quvchilarga taqdim etadi.

Odatda, bunday kechinmalar insonning kundalik hissiyotlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. Shoir o'z she'rlarida faqat o'z hislarini emas, balki o'quvchilar hamda jamiyatning umumiy tuyg'ularini aks ettirishga intiladi, bu esa ijodiy asarni keng ommaga tushunarli va qadrli qiladi. Shu bois, lirik kechinma inson qalbining nozik tomonlariga murojaat qilgan asarlarda ayniqsa yaqqol ko'rinadi.

Lirik kechinma misralar tarkibiga singdirilgan tarzda aks etadi. Bu haqida soʻz yuritgan adabiyotshunos S.Meliyev shunday yozadi: «Kechinma asl holatda yoqishi va yoqmasligidan qatʼiy nazar, sanʼat asarida qayta tiklanar ekan, muqarrar badiiy zavq manbaiga aylanadi, yaʼni albatta yoqimlilik kasb etadi».[2] Lirikaning birinchi elementi kechinmadir. Kechinma esa nafaqat tuygʻu, his, xayol balki fikr, tasavvur va ularning qorishigʻi sifatida yuzaga chiqadi.

Ona qandoq oʻyin boshlab qoʻydim men,

Qandoq savdolarga boshimni berdim.

Qandoq sahrolarda yurgandim ona,

Qirq yil tovonimdan tikanlar terdim.

Hayot egib borar magʻrur boshimni,

Boqsam yuragimda mislsiz dogʻlar.

Lekin havasimni keltirar mudom,

Birovga suyanmay yuksalgan togʻlar. [3]

Guljamol Asqarovaning "Ona qandoq o'yin boshlab qo'ydim men..." nomli she'ridan olingan ushbu parchaga e'tibor beraylik. Unda ijodkorning afsus nadomati, qo'rquvi, sabr toqati, iltijosi va kelajakka umid bilan boqib, havasdan porlayotgan nigohining, kurashishni istayotgan qalbining taftini his etish mumkindir. Birgina: "Ona qandoq o'yin boshlab qo'ydim men" jumlasining o'zidayoq inson afsus-nadomatni yaqqol his etadi. Hayot esa afsus -nadomat bilan yashash uchun juda qisqadir. Lev Tolstoy aytganidek: "Hayotning ma'nosi uning o'zida, harakatda va kurashda" dir. Kurashib yashar ekansan, shukronalik hissini ham unitmaslik kerak. "Sizda bor narsaga shukr qiling, chunki shukr qilib yashagan kishining qo'lidan Alloh ne'matni tortib olmaydi". (Umar ibn Xattob)

Sizning borligingiz naqadar yaxshi,

Dunyoda gullarning borligi kabi...

Sizning borligingiz naqadar yaxshi,

Yashil Maysalarning ovozi yangligʻ.

Sizning Borligingiz naqadar yaxshi,

Muqaddas soʻzlarning mavjudligidek...

Sizning borligingiz naqadar yaxshi,

Samimiy qoʻllarning ehtiromidek. [4]

Inson qalbida bu she'rni o'qigan zahoti, Ollohga shukronalik hissi yuragini chulg'ab oladi. Atrofdagi insonlarini qadrini his etadi. Lirik kechinma obrazdan farqli ravishda o'z tabiatidan kelib chiqib, ko'proq she'rning tug'ilishi va uning umumiy mazmuni, hissiy bo'yog'iga ta'sir etuvchi vositalardan biridir. Shuning uchun lirik kechinma misralar tarkibiga singdirilgan

tarzda aks etadi.Huddi shukronalik hissini Guljamol Asqarova o'z misralariga berkitgani kabi.

Bilaman bir kun kelib,

Ruhim oppoq bo'lgaydur.

Bilmam qirq yildan keyin,

Holim qandoq bo'lgaydur.

Xazon bo'ldi gullarim,

Xazon bo'ldi yillarim.

Bu xazonlar qaytadan

Qachon yaproq bo'lgaydur.[4]

"Umid" nomli parchadan olingan bu misralar esa hayotni qadriga yetish,uning o'tkinchi ekanligini anglatib turish hissida yozilgan desak adashmasmiz."Dunyo bir ko'prikdir,u orqali o'tib ketish uchun yaratilgandir,unda qolish uchun emas.(Imom G'azzoliy)Ammo bu tuyg'ular ajoyib bir jumla "umid" ortiga mohirona berkitililib,ikkinchi hissiyotni,lirik kechinmani,ya'ni noumid yashamaslik lozimligini ham yoritib o'tadi."Har kimki umid uzsa Yaratgandan,Ko'p mayli kulfat ichra hayron bo'lur"(Alisher Navoiy)

Bu hayotda yashar ekan inson ko'p qiyinchiliklar ko'radi.Shu bilan birga baxtli onlar ham uni qurshab oladi."Hayotning o'n beshi yorug' ,o'n beshi qorong'u ",-deb aynan shunga aytishadi.Guljamol Asqarovaning "Umr"deb nomlangan she'rida shu tuyg'u,shu kechinma ifodalanadi.

Xudoyim!

Ba'zan yaratganingga shukr deymiz.

Ba'zan nega yaratding deymiz.

Shundoq o'tyapti

Umrimiz.[5]

Tuyg'u kechinmaga aylanishi uchun,odam u tuyg'uni chuqurroq o'rganib,ongli ravishda anglashi lozim.So'ng u tuyg'uni biror xotira,shaxsiy tajribaga bog'laydi.Aynan o'sha sayqallangan tuyg'u kechinmaga aylanadi.Uni his qilgan shoirgina o'zgalar loshiga(jasadiga) ruh singdirgan kabi bo'ladi.

Taskin

"Qo'y yig'lama, og'riydi boshing"

Shavkat Rahmon

Qo'y, yig'lama, ruhimga qo'shil,

Yuraklaring ursin men bilan.

Bu dunyoda neki bor mushkul,

Bog'layverma qaro tun bilan.

Ko'p yozg'irma, bu taqdir, nasib,

Ayblama, tonma, ranjima.

Qaro tunlar yaralgan asli,

Oppoq tuyg'ularning mavjidan.

Kel, kelaqol, Sen axir nursan,

Borliq seni aylar to'tiyo.

Men toabad senga intiqman,

Nurga mangu zordek bu dunyo.[6]

Iztirobdan aziyat chekkan inson uchun, taskin berish uni hayotga qaytarish kabi bo'ladi. Lirik kechinma aynan shunday kuchga egadir. Guljamol Asqarova ham aynan shu kuchdan foydalanib, ushbu she'rida ichki iztiroblar, yolg'izlikni izlash, sevgi va umid, vaqt va xotirani tasvirlagan.

Bir o'ylab ko'raylik. Nega, Guljamol Asqarovaning she'rlarini qalbimiz ossonlikcha qabul qilmoqda. Nega? Boisi mohir ijodkorimiz o'z she'rlarida lirik kechinmalarni o'rinli qo'llay olgandir. Oddiy hayotda insonni qamrab oladigan his -tuyg'ularni chuqur ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, "She'riyat- bu ko'ngilning osmoni, unda insonning orzu va umidlari parvoz qiladi" (Rabindranat Tagor). "Shoirlik- bu faqat san'at emas, balki dunyoni yangicha anglash va uni odamlarga ulashishdir". (Mirzo G'olib)

Shoiraning mahorati shundaki u kichik hajmli she'rlarda katta ma'noni yoritib bera oladi. Qisqa qilib aytganda, Guljamol Asqarova she'riyatiga oshno bo'lmoqlik bu o'zini bir bor anglamoqlik, aks ettira olmayotgan tuyg'ularni ifoda etish demakdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E. Vohidov. Shoirushe'rushuur. Adabiyo'ylar. - Toshkent, "Yosh gvardiya", 1987. 117-118-betlar.
2. S. Meliyev. Lirik fojeliq. O'zbek tili va adabiyoti. 1991. №3. 7-bet.
3. G. Asqarova. Ro'shnolik. Toshkent. 2000
4. G. Asqarova. Dil fasli. Toshkent, 1989

5.G.Asqarova.Baxt dastxati.Toshkent,2004

6.G.Asqarova.Gulnoma.Toshkent, 2008

7 .Oripov A.Ishonch ko'priklari.Toshkent,1989.

8.Adabiyot nazariyasi.ikki tomlik.T.Fan,1979.

9. Hamdamov.U.B.(2002).Badiiy tafakkur tadriji.Toshkent.Yangi asr avlodi.